O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

# UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qiladi:

1. Quyidagilar:

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq;

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi (keyingi o‘rinlarda Chora-tadbirlar rejasi deb ataladi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash;

ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyokarashni shakllantirish;

uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish.

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Chora-tadbirlar rejasini bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, madaniyat, ma’naviyat, ommaviy axborot vositalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyatiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,
2019-yil 31-dekabr,
1059-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga
1-ILOVA

## Uzluksiz ma’naviy tarbiya

KONSEPSIYASI

## I bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

2. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

3. Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

4. Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

5. Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

## II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

6. Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

7. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

## III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirish

8. Uzluksiz ma’naviy tarbiya:

davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

9. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

**birinchi bosqich** — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

**ikkinchi bosqich** — maktabgacha ta’lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

**uchinchi bosqich** — umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang‘ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

**to‘rtinchi bosqich** — ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

10. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining I — XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor majlisi bayoni (27.08.2019-y., 19750-hx-son) 5-bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi — ma’naviy tarbiyaning g‘oyaviy mohiyat va strategiya yo‘nalishini belgilashga;

Vazirlar Mahkamasi — strategiyaning ijrosini ta’minlash, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni nazorat qilib borish va moliyalashtirishga;

mutasaddi vazirliklar, idoralar va hokimliklar — belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga mas’ul ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

## IV bob. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

12. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda — hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

ikkinchi davrda — bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

13. Homilador ayollar o‘qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro‘yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

14. Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma’naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida “Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti” mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o‘tkazish.

15. Oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish, ajralishlarning oldini olishda “Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida “Ota-onalik — baxt va burch” targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.

16. Oilada uzluksiz ma’naviy tarbiya xususiyatlari:

muloqot, o‘yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasiga e’tibor qaratish;

o‘zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o‘rgatish;

ilk ma’naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

o‘ziga-o‘zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘rgatish.

17. 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi.

18. Bolalarga taklif etilayotgan o‘yinchoqlarni ma’naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sirlarning oldi olinadi.

19. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida:

bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

mahallalardagi “Ota-onalar universitetlari”da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish;

“Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;

uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida “Yosh ota-ona kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi.

20. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qoshida xalqimizning boy milliy ma’naviy tarbiya merosini keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan “Ma’naviy tarbiya” ilmiy-ijodiy studiyasini tashkil etish orqali:

ota-onalar, bolalar, o‘smirlar, yoshlar va kattalarga mo‘ljallangan hujjatli, o‘quv, tarbiyaviy va badiiy kitoblar, qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari yaratiladi;

oilalarda yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratish usullari ishlab chiqiladi.

21. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkaziladi.

## V bob. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

22. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o‘z ichiga maktabgacha 3 — 6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.

23. Ushbu bosqichda 3 — 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;

o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;

o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;

nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

24. Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga:

asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish;

muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish;

o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish;

faoliyat va sujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish;

kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;

kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish;

o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatiladi.

25. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3 — 6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg‘otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

26. Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

27. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashi tavsiyalari asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “Oilaviy”, “Bolajon” telekanallari, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

28. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo‘shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

29. Mulkchilik shakllaridan qat’i nazar barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, O‘zbekiston tabiati, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

30. Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

31. Barcha turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida “O‘zbekiston — mening Vatanim!” tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish.

32. O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash.

33. Tarbiyalanuvchilarda ma’naviy tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.

34. Bolalarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiyena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi “Ona tabiatni asraylik!” ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish.

35. Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning “Bolalar dunyosi” variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish.

36. Maktabgacha ta’lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, olijanoblik, mehr-shafqat, kitobxonlik namunalarini o‘zida aks ettirgan milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko‘rinishlari va lavhalari ifodalangan tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi haykalchalar majmualarini o‘rnatish.

## VI bob. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

37. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang‘ich sinflarda;

ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o‘rta va yuqori sinflarda.

38. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

39. Boshlang‘ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma’naviy-axloqiy kompetensiyalar);

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o‘zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

o‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o‘zini-o‘zi baholashga o‘rgatish;

faoliyatda o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish;

tengdoshlari bilan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish.

40. Umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinflari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;

irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarning paydo bo‘lishi;

fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;

o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;

ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;

ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi.

41. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari asosida o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

I — XI sinflar uchun "Odobnoma" , "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilish.

42. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida rivojlantirish.

43. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

44. O'qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma'naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan "Fazilatli avlod" va boshqa metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish.

45. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida buyuk ma'rifatparvar siymolar merosini targ'ib etishga qaratilgan "O'n ikki oy — o'n ikki alloma" kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.

46. Aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini o'rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so'rovlar o'tkazish.

47. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiya samaradorligini o'lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o'lchash va "Ma'naviy tarbiya" respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish.

48. Ta'lim muassalarida o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

49. O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

50. Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

51. Har yili bir marotaba "Milliy tarbiya va zamon" mavzusida pedagogik simpozium o'tkazib borish.

52. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda "Tarbiya maktabi", "So'rang! Javob beramiz, o'rgatamiz" ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish.

## VII bob. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

53. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida ma'naviy tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh;

ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh.

54. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

55. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish;

vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish;

mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash;

yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

namunali, ma’naviy uyg‘unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag‘batlantirish;

yosh oilalarning hayotda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga erishish.

56. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy rejalari asosida o‘quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantiriladi.

57. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar:

ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

o‘quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni rag‘batlantirish;

kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish;

faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e’tiqodni shakllantirish;

baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

58. “Fazilatli avlod” ruknida o‘quvchi-talabalar, murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar, vazirliklar va idoralarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullari uchun o‘quv-qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma’rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasi yaratiladi.

59. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish ishlarini amalga oshirish.

60. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari murabbiylari, professor-o‘qituvchilari, yoshlar yetakchilarini “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

61. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida har yili ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilib borish.

62. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda har yili ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muhokama qilib borish.

63. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

64. Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo‘lga qo‘yish.

65. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish.

## VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

66. Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

67. Oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

68. Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

69. Oila, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta’minlanadi.

70. Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga
2-ILOVA

## Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish

CHORA-TADBIRLARI REJASI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|---|---|
| I. Oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Jamiyatda milliy tarbiya an'analari, qadriyatlarini tiklash, oila institutini mustahkamlash, rivojlantirish, zamonaviy oila ma'naviyati mezonlarini joriy etishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, moliyalashtirish, o'tkazish hamda tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etish. | 1.Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar loyihalarini ishlab chiqish.<br>2.Tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish.<br>3.Tadqiqot natijalari bo'yicha risolalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, kitoblar chop etish, multimedia mahsulotlarini tayyorlash. | 2020 — 2030-yillar | Ijrochilar mablag'lari | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |
| 2. | Oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish, ajralishlarning oldini olishda "Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar" prinsipiga asoslangan **"Ota-onalik — baxt va burch"** targ'ibot tadbirlarini tashkil etish. | 1. Targ'ibot tadbirlari rejasini ishlab chiqish.<br>2. Targ'ibotchilar guruhini shakllantirish.<br>3. Targ'ibot tadbirlarini manzilli tashkil etish. | 2020-yil 3 — 20-fevral<br>20 — 27-fevral<br>2-mart — 1-dekabr | Ijrochilar mablag'lari | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi |
| 3. | Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish. | 1. Oilaviy qadriyatlarga zid bo'lgan ma'naviy tahdidlarni aniqlash.<br>2. Ma'naviy tahdidlarning profilaktikasi bo'yicha reja ishlab chiqish.<br>3. Maxsus soha vakillaridan iborat ekspertlar guruhini shakllantirish.<br>4. Profilaktik tadbirlar tashkil etish. | 2020-yil 8 — 28-fevral<br>1 — 10-mart<br>2 — 10-aprel<br>muntazam | — | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi |
| 4. | Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida homilador ayollar, yosh onalar, qaynonalar o'rtasida ijtimoiy- | 1. Mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat ekspertlar guruhini shakllantirish. | 2020-yil 10 — 20-fevral | — | "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab- |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | pedagogik, psixologik turkum suhbatlar, uchrashuvlar, seminarlar dasturlarini tashkil etish. | 2. Ijtimoiy-pedagogik, psixologik suhbatlar dasturini ishlab chiqish.<br>3. Jadval asosida suhbatlarni o‘tkazish. | 1— 27-mart<br>muntazam | | quvvatlash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi |
| 5. | Ota-onalar tarbiyasida bo‘lgan 3 yoshgacha bolalar uchun mo‘ljallangan alla, ertaklardan to‘plam holida audio va videomateriallar yaratish. | 1. Mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Bolalar uchun mo‘ljallangan alla, ertaklar to‘plamlarini shakllantirish.<br>3. To‘plamning audio va video materiallarini yaratish.<br>4. Tayyorlangan to‘plamni elektron tarzda tarqatish. | 2020-yil 1 — 30-aprel<br>1-may — 3-avgust<br>17-avgust — 2-noyabr<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, �zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “O‘zbekkino” Milliy agentligi |
| 6. | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi **“Ma’naviy tarbiya”** respublika jamoatchilik kengashini tashkil etish. | 1. “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashi nizomini ishlab chiqish.<br>2. Kengash a’zolari tarkibi ro‘yxatini shakllantirish va tasdiqlash.<br>3. Mamlakatda amalga oshirilayotgan uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonini muntazam o‘rganish, mas’ul tashkilotlar tomonidan zarur topshiriq hamda vazifalarni amalga oshirish. | 2020-yil 15-yanvar — 20-aprel<br>20 — 27-aprel<br>muntazam | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 7. | Mamlakatimizda bolalar uchun ishlab chiqarilayotgan va xorijdan kirib kelayotgan kiyimlar, o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoqlar, kompyuter o‘yinlari, matbaa va maishiy mahsulotlarning | 1. Tegishli tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Tahlillar natijalari bo‘yichamonitoring va nazoratni tashkil etish. | 2020-yil 1 — 8-may<br>11-may — 29-iyun | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ma'naviy, tarbiyaviy, g'oyaviy, tibbiy-gigiyeniktahlillarini olib borish va tegishli vazirliklar va idoralarga takliflar kiritib borish. | 3. Ishchi guruh tomonidan doimiy ravishda tahliliy natijalar asosida tegishli idora va tashkilotlarga takliflar kiritib borish. | muntazam | | "O'zstandart" agentligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 8. | Oilalarda mehr-oqibat, odamiylik, ota-onalarga hurmatva sadoqat kabi fazilatlarni mustahkamlash, farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan "**Oilada farzand tarbiyasiga e'tibor", "Mening farzandim — Vatanim faxri!"** mavzularida teleko'rsatuv va radioeshittirish turkumini yaratish. | 1. Mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Turkum teleko'rsatuv va radioeshittirishlar ssenariylarini ishlab chiqish.<br>3. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni doimiy ravishda efirga uzatib borish. | 2020-yil 10 — 24-yanvar<br>1-fevral — 1-aprel<br>muntazam | Ijrochilar mablag'lari | O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi |
| 9. | Farzandlarimizni xalqimizga xos yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida milliy axloqiy fazilatlarni qaror toptirish maqsadida **"Bir bolaga yetti qo'shni — ota-ona"** an'anasini tiklash, jamoatchilikning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlarda xeshteglar tashkil etish. | 1. Xeshteg loyihalarini ishlab chiqish.<br>2. Xeshteglarni ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda ommalashtirish. | 2020-yil 2 — 25-mart<br>muntazam | — | O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi |
| 10. | Uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida:<br>**"Yosh ota-ona kitobi"** metodik qo'llanmasini tayyorlash;<br>**"Milliy tarbiya maktabi"** rukni ostida multimediali taqdimotlar turkumini yaratish. | 1. Mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Ishchi guruh tomonidan "Yosh ota-ona kitobi" metodik qo'llanmasini tayyorlash.<br>3. "Tarbiya maktabi" rukni ostida multimediali taqdimotlar turkuminiishlab chiqish. | 2020-yil 6 — 15-yanvar<br>2020-yil 3-fevral — 4-mart<br>5-mart — 3-avgust | Ijrochilar mablag'lari | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish. | muntazam | | |
| **II. Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish** | | | | | |
| 11. | Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi asosida 3 — 6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, milliy an’analarga qiziqtirish, yaqinlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan **“Baxtli bola ma’naviyati”** kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. Reja asosida “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2020-yil 13 — 30-mart<br>reja asosida | | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Maktabgacha ta’lim vazirligi |
| 12. | Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv-treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. Bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bo‘yicha materiallar to‘plash.<br>2. Hududiy o‘quv-treninglar, seminarlar, forumlardasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>3. Ishlab chiqilgan dastur asosida hududiy o‘quv-treninglar, seminarlar, forumlar tashkil etish. | 2020-yil 4-mart — 7-aprel<br>8-aprel — 7-may<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Maktabgacha ta’lim vazirligi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi |
| 13. | O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “Oilaviy”, “Bolajon”, nodavlat teleradiokanallar, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini Uzluksiz ma’naviy tarbiya | 1. “Oilaviy”, “Bolajon” va nodavlat teleradiokanallar, bolalar nashriyotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 2020-yil 12 — 25-mart | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | konsepsiyasi asosida takomillashtirish. | 2. Chora-tadbirlar asosida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimi, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini takomillashtirish. | muntazam | | |
| 14. | Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo‘shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillari tomonidan ijodiy guruhni shakllantirish.<br>2. Spektakllar, kuy-qo‘shiq, raqs va turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko‘rinishlari, milliy o‘yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.<br>3. Tayyorlangan ssenariylar loyihalarini maktabgacha ta’lim muassasalariga tegishli tartibda yetkazish. | 2020-yil 14 — 28-fevral<br>2-mart — 4-may<br>reja asosida | — | Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “O‘zbekkino” Milliy agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Maktabgacha ta’lim vazirligi |
| 15. | Tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta’lim muassasalarini o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, mamlakatimiz tabiati, Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibini va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillari tomonidan ijodiy guruhni shakllantirish.<br>2. O‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, qadimiy milliy me’morchilik obidalari, mamlakatimiz tabiati, Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibini va ko‘rgazmali namunalarini ishlab chiqish.<br>3. Tayyorlangan ko‘rgazmali namunalarini maktabgacha ta’lim muassasalariga tegishli tartibda yetkazish. | 2020-yil 14—27-fevral<br>3-mart—3-may<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Maktabgacha ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 16. | Tashkiliy-huquqiy shakllaridan va ta’lim tilidan qat’i nazar mamlakatimizdagi barcha | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhni tuzish. | 2020-yil 10 — 20-fevral | Ijrochilar mablag‘lari | Maktabgacha ta’lim vazirligi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish, bolalarda o'zbek tiliga nisbatan muhabbat uyg'otish maqsadida turli tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishga qaratilgan metodik qo'llanmalar, ssenariy to'plamlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish. | 2. Davlat tilini o'rgatishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlar metodik qo'llanmalarini yaratish.<br>3. Tarbiyaviy tadbirlarning ssenariy to'plamlarini ishlab chiqish.<br>4. Ishlab chiqilgan tarbiyaviy metodik qo'llanmalar, ssenariy to'plamlarini amaliyotga joriy etish. | 21-fevral — 25-iyun<br>21-fevral — 25-iyun<br>muntazam | | O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi |
| 17. | Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo'yicha **"Bola aziz, odobi undan aziz"** mavzusida multimedia dasturlari, ertak, matal, afsona, doston, maqollarning audio va videomahsulotlarini tayyorlash. | 1. Mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. "Bola aziz, odobi undan aziz" nomlimultimedia asarlari (ertak, matal, afsona, doston, maqollar)ning audio va video mahsulotlarini yaratish.<br>3. Tayyorlangan audio va video mahsulotlarini tegishli tartibda joylarga yetkazish. | 2020-yil 9 — 16-mart<br>17-mart — 18-avgust<br>reja asosida | Ijrochilar mablag'lari | Xalq ta'limi vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 18. | Barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida **"O'zbekiston — mening Vatanim!"** tuyg'usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish. | 1. Mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. "O'zbekiston — mening Vatanim!" nomli targ'ibot tadbirlari ssenariysini ishlab chiqish.<br>3. Ssenariy asosida joylarda targ'ibot tadbirlarini o'tkazish rejasini tayyorlash.<br>4. Reja asosida joylarda "O'zbekiston — mening Vatanim!" nomli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish. | 2020-yil 7 — 14-fevral<br>18-fevral — 19-may<br>19 — 29-may<br>muntazam | Ijrochilar mablag'lari | Maktabgacha ta'lim vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 19. | O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar yaratish, ularni telekanallarda praym-taym vaqtlarida namoyish etishni ta’minlash. | 1. Mas’ul tashkilotlar vakillaridan iborat ijodiy guruh tuzish.<br>2. Bolalar uchun seriallar, milliy qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlar ssenariylarini yaratish.<br>3. Ishlab chiqilgan seriallar, qo‘g‘irchoq va multiplikatsion filmlarni telekanallardagi praym-taym vaqtlarida namoyish etish. | 2020-yil 7 — 16-yanvar<br><br>17-yanvar — 18-iyun<br><br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekkino” Milliy agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi |
| 20. | Bolalarda atrof muhit ozodaligi, shaxsiy gigiyena, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunidagi **“Ona tabiatni asraylik!”** ruknida tarbiyaviy roliklar yaratish. | 1. Roliklar ssenariylarini ishlab chiqish.<br>2. Ishlab chiqilgan tarbiyaviy roliklarni ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish. | 2020-yil 10-fevral — 13-aprel<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekkino” Milliy agentligi, Moliya vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi |
| 21. | Bolalarda orzuga intilish, ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan aqliy va harakatli o‘yinlar, konstruktorlik o‘yinlari va o‘yinchoqlarning **“Bolalar dunyosi”** variativ o‘yinlar majmuasini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish. | 1. Manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. “Bolalar dunyosi” variativ o‘yinlar dasturini ishlab chiqish.<br>3. Ishlab chiqilgan variativ dasturni tegishli tartibda joylarga yetkazish. | 2020-yil 6 — 19-mart<br><br>2020-yil 1-aprel 2021-yil 13-avgust<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi |
| 22. | Maktabgacha ta’lim muassasalari hududida bolalarni mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, olijanoblik, mehr-shafqat namunalarini o‘zida aks ettirgan milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari ko‘rinishlari va lavhalari | 1. Manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Milliy siymolar, milliy ertaklar va multfilm qahramonlari obrazlari asosida haykalchalar majmuasini ishlab chiqish. | 2020-yil 8 — 18-fevral<br><br>20-fevral — 22-avgust | Ijrochilar mablag‘lari | Maktabgacha ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | aks etgan haykalchalar majmualarini o‘rnatish. | 3. Tayyorlangan mahsulotlarni maktabgacha ta’lim muassasalari hududlarida o‘rnatilishini tashkil etish. | muntazam | | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **III. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish** | | | | | |
| 23. | **“Uzluksiz ma’naviy tarbiya”** ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik majmuasini yaratish.<br>Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari asosida o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish.<br>I — XI sinflar uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish. | 1. Manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida darsliklar, adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik majmuasini yaratish.<br>3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” rukni ostida tayyorlangan materiallar asosida davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalariga yangiliklar kiritib borish.<br>4. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasi asosida I — XI sinflar uchun “Tarbiya” fani darsligini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 2020-yil 6 — 15-yanvar<br>2019-yil dekabr — 2020-yil dekabr<br>muntazam<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi |
| 24. | **“Besh muhim tashabbus”** doirasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatini ma’naviy tarbiyaning samarali va ta’sirchan mashg‘ulot va tadbirlari bilan boyitish. | 1. “Besh muhim tashabbus” asosida to‘garaklarning namunaviy dasturini ishlab chiqish.<br>2. Ishlab chiqilgan dasturni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etilgan to‘garaklar faoliyatiga joriy etish. | 2020-yil 12-fevral — 14-aprel<br>2020-2021 o‘quv yilidan boshlab muntazam | — | Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi loyiha ofisi” NNT |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 25. | Umumta’lim maktablarida milliy g‘oya tamoyillarini tarbiya jarayoniga chuqur singdirish, o‘quvchilarga milliy tarbiya asoslarini to‘laqonli tushuntirish, ajdodlarimizning tarbiyaga oid ta’limotlarini yoshlarga yetkazishga qaratilgan **“Tarbiya”** fanini joriy etish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 — 11-sinflari uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha tuzuvchilar guruhini shakllantirish. | 2020-yil 15-yanvar | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| | | 2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining I — XI sinflari uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dinlar tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy qilish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish. | mart | | |
| | | 3. Umumta’lim muassasalari 1 — 9-sinflari va 10-11-sinflariga mo‘ljallangan “Tarbiya” fani darsliklari, multimedia ilovalari va o‘quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish. | iyul | | |
| 26. | Umumta’lim muassasalarining **“Tarbiya”** fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish. | 1. Manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish. | 2020-yil 14 — 30-yanvar | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| | | 2. “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish. | 5-fevral — 6-may | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari va jadvalini ishlab chiqish.<br>4. “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini doimiy tashkillashtirish. | 8-may — 19-may<br>reja asosida | | |
| 27. | O‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma’n�viy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash metodlari bilan boyitilgan **“Fazilatli avlod”** va boshqa metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilot vakillaridan iborat ishchi guruhni tuzish.<br>2. “Fazilatli avlod” va boshqa metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.<br>3. O‘qituvchilar va ota-onalarning farzand tarbiyasidagibilimlarini yanada boyitish maqsadida “Fazilatli avlod” qo‘llanmasi taqdimotini o‘tkazish. | 2020-yil 6 — 10-yanvar<br>2020-yil 6-yanvar — 6-iyul<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Xalq ta’limi vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 28. | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida buyuk ma’rifatparvar siymolar merosini targ‘ib etishga qaratilgan **“O‘n ikki oy — o‘n ikki alloma”** kitobxonlik oyliklarini o‘tkazish. | 1. “O‘n ikki oy — o‘n ikki alloma” kitobxonlik oyligi loyihasini ishlab chiqish.<br>2. Kitobxonlik oyligi doirasida tavsiya etilayotgan allomalar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan aksiyalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ijtimoiy tarmoqlarda xeshteglar o‘tkazish.<br>3. “O‘n ikki oy — o‘n ikki alloma” kitobxonlik oyliklarini o‘tkazish va ularni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish. | 2020-yil 6-yanvar — 7-may<br>2020-2021 o‘quv yildan boshlab reja asosida<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 29. | Aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan bir yilda ikki marta ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish. | 1. Ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhni shakllantirish.<br>2. Ijtimoiy so‘rovnomalar namunalari hamda ijtimoiy tadqiqot dasturini ishlab chiqish.<br>3. Belgilangan hududlarda ijtimoiy so‘rovnomalarni o‘tkazish va natijalarni umum�ashtirish.<br>4. Tahliliy ma’lumotlar tayyorlash va shu asosda mutasaddi idoralarga takliflar kiritish. | 2020-yil 12 — 17-fevral<br>19-fevral — 10-aprel<br>15-aprel — 29-may<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Xalq ta’limi vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 30. | Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan yangi va ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ijodiy guruhni shakllantirish.<br>2. Yangi va ta’sirchan shakllarssenariylarini ishlab chiqish.<br>3. Barcha ta’lim muassasalarida belgilangan ssenariylarga asosan tegishli vazifalarni joriy etish. | 2020-yil 7 — 12-iyun<br>14-iyun — 14-avgust<br>2020-2021 o‘quv yilidan boshlab | — | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Xalq ta’li�i vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 31. | O‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. Treninglar dasturlarini ishlab chiqish.<br>2. Soha vakillaridan iborat trenyerlar guruhini shakllantirish.<br>3. Tarqatma materiallar, metodik ko‘rsatmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish.<br>4. Belgilangan reja asosida trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish. | 2020-yil 13-aprel — 17-iyul<br>20-27-iyul<br>1 — 20-avgust<br>10-sentabr — 20-dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 32. | Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat,mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllanti�ishgaqaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. Treninglar dasturlarini ishlab chiqish.<br>2. Soha vakillaridan iborat trenyerlar guruhini shakllantirish.<br>3. Trening uchun zarur bo‘lgan tarqatma materiallar, metodik ko‘rsatmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish.<br>4. Belgilangan reja asosida trening mashg‘ulotlarini o‘tkazib borish. | 2020-yil 13-aprel — 17-iyul<br>20 27-iyul<br>1 — 20-avgust<br>10-sentabr — 20-dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 33. | Bolalar va o‘smirlarni ma’naviy tarbiyalashda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning milliy tarbiya borasidagi ilg‘or yutuqlarini o‘rganish, xalqaro ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish, xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, ilmiy-metodik adabiyotlar, risolalar chop etish. | 1. Etakchi xalqaro ta’lim markazlari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash.<br>2. Milliy tarbiya borasidagi ilg‘or yutuq va xalqaro tajribani o‘rganish, xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlarini amalga oshirish.<br>3. “Milliy ma’naviy tarbiya” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish.<br>4. Ilmiy-metodik adabiyotlar, risolalar chop etish. | 2020-2021-yillarda | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 34. | Respublikadagi malakali dizayner va modelyerlarni keng jalb etgan holda bolalar, o‘smirlar, yoshlar uchun milliy asosdagi zamonaviy kiyimlar targ‘ibotiga bag‘ishlangan har faslda **“Yangi mavsum liboslari”** respublika ko‘rik-tanlovi va ko‘rgazmasini tashkiletish. | 1. Idora va tashkilot vakillaridan iborat ijodiy guruh tuzish.<br>2. “Yangi mavsum liboslari” respublika ko‘rik-tanlovi nizomini ishlab chiqish.<br>3. Ta’lim muassasalarida “Yangi mavsum liboslari” respublika ko‘rgazmasini tashkiletish. | 2020-yil 5 — 10-mart<br>13-mart — 20-aprel<br>har chorakda reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi,<br>O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish, eng yaxshi namunalarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib etish. | muntazam | | |
| 35. | Bolalarda milliy mumtoz ijroga muhabbat uyg‘otish, ularga mos yangi ashula va raqslar yaratishni rag‘batlantirish uchun “Mumtoz sadolar”, “Kuyla yoshligim”, “Beg‘ubor bolalik”, “Dilxiroj” kabi respublika tanlovlarini tashkil etish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ijodiy guruh tuzish. | 2020-yil 10 — 22-iyun | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Madaniyat vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| | | 2. “Mumtoz sadolar”, “Kuyla yoshligim”, “Beg‘ubor bolalik”, “Dilxiroj” respublika tanlovini zomini ishlab chiqish. | 24-iyun — 22-avgust | | |
| | | 3. Belgilangan reja asosida ta’lim muassasalarida “Mumtoz sadolar”, “Kuyla yoshligim”, “Beg‘ubor bolalik”, “Dilxiroj” respublika tanlovlarini tashkil etish va ommaviy axborot vositalariva ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib etish. | 6-sentabr — 28-dekabr | | |
| 36. | Hududiy Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari orqali ommaviy axborot vositalari, mamlakatimizdagi mavjud tashqi tasviriy targ‘ibot va reklama vositalarida milliy ma’naviy tarbiya mavzusida namunali lavhalar, roliklar, ma’lumotlar berib borilishini muntazam yo‘lga qo‘yish. | 1. Mamlakatimizdagi mavjud tashqi tasviriy targ‘ibot va reklama vositalarida milliy ma’naviy tarbiya mavzusida namunali lavhalar, roliklar, ma’lumotlar berib borish tartibini ishlab chiqish. | 2020-yil 12-mart — 14-may | Ijrochilar mablag‘lari | Hududiy ma’naviyat va ma’rifat Kengashlari, “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi |
| | | 2. Namunali lavhalar, roliklar va ma’lumotlar ba’zasini shakllantirish. | 15-may — 19-iyul | | |
| | | 3. Tayyorlangan materiallar asosida tashqi tasviriy targ‘ibot va reklama vositalariga ma’lumotlar joylab borish. | muntazam | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 37. | Tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari, jumladan, ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda davlat tiliga hurmat, milliy ma'naviy meros va qadriyatlargaqiziqishni rag'batlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. Davlat tiliga hurmat, milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga qiziqishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar dasturini ishlab chiqish.<br>2. Dastur asosida barcha ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib borish. | 2020-yil 12-iyun — 15-avgust<br>reja asosida muntazam | — | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xalq ta'limi vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 38. | Ta'lim muassasalaridagi **"Kamalak"** bolalar tashkiloti, O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini Konsepsiya mazmunidan kelib chiqib takomillashtirish, o'quvchilarning ma'naviy faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirish. | 1. "Kamalak" bolalar tashkilotinirivojlantirish yuzasidan hamkorlik chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. O'quvchilar tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'rik-tanlovlar tashkil etib borilishini yo'lga qo'yish. | 2020-yil 15-iyun — 29-iyul<br>reja asosida muntazam | — | O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 39. | Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, **"Barkamol avlod"** markazlari tarkibidagi to'garaklar faoliyati mazmunini Konsepsiya talablari asosida qayta tashkil etish. | 1. Mas'ul idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhni tuzish.<br>2. "Barkamol avlod" markazlari tarkibidagi to'garaklar mazmuniga Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi mazmuni talablari yuzasidan takliflar kiritish. | 2020-yil 9-aprel — 18-iyul<br>22-iyul — 21-avgust | — | O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 40. | O'quvchi yoshlarni milliy hunarmandchilik, zamonaviy kasb-hunar sirlarini o'rganishga rag'batlantirish, **"Ustoz — shogird"** an'analarini | 1. Tegishli idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. "Ustoz-shogird" an'anasining yangi loyihasini ishlab chiqish. | 2020-yil 12 — 19-may<br>22-may — 23-aprel | — | Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, tegishli vazirliklar, va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tiklash harakatini amalga oshirish. | 3. Barcha ta’lim muassasalarida “Ustoz — shogird” an’analarini amalga oshirish. | muntazam | | |
| 41. | Mamlakatimizda tashkil etilgan “**Prezident maktablari”, “Ijod maktablari”, “Temurbeklar maktablari”** kabi turli yo‘nalishlardagi ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqa ta’lim muassasalaridagi iqtidorli bolalar va o‘smirlarning erishayotgan yutuq va natijalarini keng targ‘ib etish orqali o‘quvchilar orasida ilmga bo‘lgan intilishni kuchaytirish. | 1. “Prezident maktablari”, “Ijod maktablari”, “Temurbeklar maktablari” hamda boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar yoshlari erishgan yutuqlarni ommalashtirishga oid teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlash.<br>2. Mazkur maktablardagi yoshlar faoliyati bo‘yicha “Mening erishgan yutuqlarim” mavzusida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish. | 2020-yil 14-sentabr — 16-noyabr<br>2020-2021 o‘quv yilidan boshlab reja asosida muntazam | — | Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi |
| 42. | Mamlakatimizdagi tashkiliy-huquqiy shakllari va ta’lim tilidan qat’i nazar barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida **“O‘zbekiston — mening baxtim, mening kelajagim!”** debnomlangan 6 — 11 sinf o‘quvchilari o‘rtasida insholar tanlovini o‘tkazish, eng yaxshi insho namunalarini chop etish va mualliflarini rag‘batlantirish. | 1. Tegishli idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. “O‘zbekiston mening baxtim, mening kelajagim!” umummilliy insholar tanlovi nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>3. Reja asosida tanlovning tuman, shahar, viloyat va respublika bosqichlarini o‘tkazish.<br>4. Tanlovdagi eng yaxshi insho namunalarini chop etish hamda mualliflarini rag‘batlantirish. | 2020-yil 9 — 14-noyabr<br>15-noyabr — 19-dekabr<br>2020-2021 o‘quv yili davomida<br>muntazam | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, tegishli vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 5. Tanlovdagi eng yaxshi insho namunalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, davriy nashrlar va jurnallarda chop etish. | muntazam | | |
| 43. | O‘quvchilar uchun ma’naviy ibrat timsoli bo‘lib xizmat qiladigan tarixiy va zamonaviy qahramonlar obrazlari aks etgan teatr va kino asarlari, badiiy adabiyot namunalarini yaratish. | 1. Tegishli idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Tarixiy va zamonaviy qahramonlar obrazlari aks etgan teatr va kino asarlari, badiiy adabiyot namunalarini yaratish.<br>3. Ishlab chiqilgan teatr va kino asarlari, badiiy adabiyot namunalarini belgilangan tartibda joylarga yetkazish. | 2020-yil 12 — 20-mart<br>24-mart — 23-iyul<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | “O‘zbekkino” Milliy agentligi, Moliya vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi |
| 44. | Umumta’lim maktablarida milliy o‘yinlar, sport musobaqalari mazmunini milliy tarbiya ruhi bilan boyitish, uning milliy g‘urur, oriyat, halollik, mardlik, iroda kabi fazilatlar asosida o‘quvchilarni birlashtirish shakllarini ishlab chiqish, milliy va jamoaviy sport o‘yinlari spartakiadalarini tashkil etish. | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Milliy o‘yinlar, sport musobaqalari mazmunini milliy tarbiya ruhi bilan boyitish asosida o‘quvchilarni birlashtirish shakllarining yangi tartibini ishlab chiqish.<br>3. Umumta’lim maktablari o‘rtasida milliy va jamoaviy sport o‘yinlari spartakiadalarini o‘tkazish. | 2020-yil 6 — 12-yanvar<br>15-yanvar — 27-fevral<br>3-mart — 27-noyabr | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 45. | Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini axloqiy fazilatlar majmui bo‘lgan milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini | 1. Manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat olimlar guruhini tuzish. | 2020-yil 19 — 24-fevral | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Moliya vazirligi, Fanlar akademiyasi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o'rganish maqsadida mamlakatimiz hududlariga etnopedagogik ekspeditsiyalarni tashkil etish.<br>To'plangan tarbiyaviy meros asosida kitob va qo'llanmalar, ko'pjildli **"Milliy tarbiya ensiklopediyasi**"ni yaratish hamda chop etish, undan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun multimedia mahsulotlarini tayyorlash va mobil ilovalarini yaratish bo'yicha grant loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 2. Ishchi guruh tomonidan etnopedagogik ekspeditsiyaning faoliyat dasturini ishlab chiqish.<br>3. Etnopedagogik ekspeditsiya manzillarini aniqlash.<br>4. Ekspeditsiya natijalari bo'yicha ko'p jildli "Milliy tarbiya ensiklopediyasi"ni yaratish va chop etish.<br>5. Ekspeditsiyada to'plangan manbalardan foydalanib multimedia mahsulotlari va mobil ilovalar yaratish bo'yicha grant loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. | 26-fevral — 27-mart<br>reja asosida<br>reja asosida<br>reja asosida | | Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 46. | **"Milliy tarbiya va zamon"** mavzusida har yili bir marta respublika ilmiy-metodik konferensiyasini o'tkazish. | 1. Mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. "Milliy tarbiya va zamon" mavzusidagi konferensiya dasturini ishlab chiqish.<br>3. Belgilangan tartibda konferensiyani o'tkazish va unda ko'tarilgan masalalar bo'yicha to'plam va risolalar chop etish. | 2020-yil 8 — 12-aprel<br>13 — 20-aprel<br>sentyabr reja asosida | Ijrochilar mablag'lari | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi |
| 47. | Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda **"Tarbiya maktabi","So'rang! Javob beramiz, o'rgatamiz"** ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish. | 1. Mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. "So'rang! Javob beramiz, o'rgatamiz" ruknidagi pedagogik chellenjlar dasturini ishlab chiqish.<br>3. Chellenjlarni doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish. | 2020-yil 14-22-may<br>22-may — 7-iyun<br>muntazam | — | O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiyatsiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **IV. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish** | | | | | |
| 48. | Yoshlarning kelajakka ishonchi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan treninglar dasturini ishlab chiqish hamda mahallalar va ta’lim muassasalarida joriy qilish. | 1. Soha vakillaridan iborat trenyerlar guruhini shakllantirish.<br>2. Treninglar dasturlari, tarqatma materiallar, metodik ko‘rsatmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish.<br>3. Belgilangan reja asosida trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish. | 2020-yil 7-aprel — 6-may<br>11-may — 11-iyun<br>reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi |
| 49. | Jamiyatda vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy ko‘nikmalarni o‘rganish, innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlariga ega bo‘lish, halol mehnat yoshlarning mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishishining muhim omili ekanligini ko‘rsatuvchi tizimli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. | 1. Targ‘ibotchilar guruhini shakllantirish.<br>2. Targ‘ibot ishlari rejasini ishlab chiqish.<br>3. Targ‘ibot ishlarini manzilli amalga oshirish. | 2020-yil 3 — 20-fevral<br>20 — 27-fevral<br>2-mart — 1-dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi |
| 50. | Yoshlarda oilaviy burch, oilada o‘zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas’ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan qo‘shma dastur va loyihalarni ishlab chiqish. | 1. Qo‘shma dastur �ayyorlash bo‘yicha hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida Ishchi guruh shakllantirish.<br>2. Qo‘shma dastur va unda belgilangan vazifalar samaradorligini ta’minlash bo‘yicha maqsadli loyihalar namunalarini tayyorlash.<br>3. Qo‘shma dastur va loyihalarni hamkor tashkilotlar bilan kelishish va tasdiqlash. | 2020-yil 13 — 31-yanvar<br>3-fevral — 6-mart<br>9 — 27-mart | — | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Qo‘shma dastur va loyihalarni ijroga yo‘naltirish va nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish. | doimiy | | |
| 51. | Ma’naviy uyg‘unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo‘la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan va keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilayotgan yosh ota-onalar, namunali oilalarni keng targ‘ib qilishga qaratilgan tanlovlar, teleradiodasturlar tashkil qilish. | 1. Tanlovlar va teleradio dasturlarni tashkil qilish bo‘yicha hamkor tashkilotlarning birgalikdagi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.<br>2. Tanlovlar nizomi va teleradiodasturlar ssenariylarini tayyorlash.<br>3. Tanlovlar o‘tkazish va teleradiodasturlarni efirga uzatish.<br>4. Tanlovlarni ommaviy axborot vositalari va internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish.<br>5. Tanlov g‘oliblarini munosib rag‘batlantirish. | 2020-yil 9 — 27-mart<br>1 — 30-aprel<br>4-may-30-noyabr<br>doimiy<br>tanlov natijalariga ko‘ra | Ijrochilar mablag‘lari | O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi |
| 52. | Yosh oilalarning hayotda munosib o‘rin egallashlari, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga erishishiga ko‘maklashish maqsadida **“Mahalla oqshomlari”** madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish. | 1. “Mahalla oqshomlari” madaniy-ma’rifiy tadbirlar dasturi va uni o‘tkazish bo‘yicha namunaviy ssenariylarini ishlab chiqish.<br>2. Namunaviy ssenariylar asosida barcha mahallalarda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazib borish. | 2020-yil 3-fevral — 3-aprel<br>reja asosida muntazam | — | O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi |
| 53. | Ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy tarbiya | 1. Mas’ul idoralar va tashkilotlar vakillari, olimlardan iborat ijodiy guruh tuzish. | 2020-yil 10 — 20-fevral | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | indikatorlari va kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar turkumlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish. | 2. Amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar turkumini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | Muntazam | | Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| 54. | Yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik, davlat ramzlariga hurmat, zamonaviy bilimlarga intilish, media madaniyatni rivojlantirish, tarbiya borasidagi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish maqsadida xorijiy davlatlarga ilmiy safarlar uyushtirish. | 1. Xorijiy davlatlarga xizmat safarlarni tashkil etish bo‘yicha mas’ul tashkilotlar bilan kelishish.<br>2. Tajriba o‘rganish va ilmiy tahlillar olib boruvchi tadqiqotchilar guruhini shakllantirish.<br>3. Xizmat safarlarni tashkil etish.<br>4. Tahlillar yakuni bo‘yicha risolalar nashr etishga taqdim etish. | 2020-yil 2 — 26-mart<br>1 — 30-aprel<br>kelishuv natijalariga ko‘ra | Ijrochilar mablag‘lari | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Tashqi ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi |
| 55. | Jamiyatda har bir yigit-qizning kamida uchta zamonaviy kasb-hunar sirlarini egallashiga undovchi yoshlar harakatini yo‘lga qo‘yish, bunda band bo‘lmagan yoshlarning kasb va hunar egallashlari uchun yetarli sharoitlar yaratish. | 1. Mas’ul idora va tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.<br>2. Hamkor tashkilotlarning qo‘shma qarorini ishlab chiqish va tasdiqlash, shu asosda yoshlar harakatini yo‘lga qo‘yish.<br>3. Yoshlar harakati haqida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish. | 2020-yil 3 — 24-fevral<br>4-mart — 6-aprel<br>doimiy | Ijrochilar mablag‘lari | Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Xotin-qizlar qo‘mitasi |
| 56. | Yoshlar ongi va qalbida ilmiy, ma’naviy-axloqiy, siyosiy, sog‘lom diniy e’tiqodni uyg‘un shakllantirishga qaratilgan | 1. Mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda milliy kontentni boyitish bo‘yicha hamkorlik rejasini ishlab chiqish. | 2020-yil 13-yanvar — 13-fevral | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ma'lumotlar bilan internet tarmog'ining milliy kontentini boyitib borish. | 2. Ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy va sog'lom diniy mazmundagi maqolalar, ijtimoiy roliklar, ibratli hikoyalar, audio va ko'rgazmali materiallar yaratish va internet tarmog'iga joylashtirib borish. | muntazam | | Maktabgacha ta'lim vazirligi,<br>Xalq ta'limi vazirligi,<br>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |
| 57. | O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari, sport majmualari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini **"Besh muhim tashabbus"** asosida yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish. | 1. "Besh muhim tashabbus" asosida to'garaklarning namunaviy dasturini ishlab chiqish.<br>2. Ishlab chiqilgan dasturni o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari, sport majmualari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan to'garaklar faoliyatiga joriy etish. | 2020-yil 12-fevral — 14-aprel<br><br>2020-2021 o'quv yilidan boshlab muntazam | — | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,<br>Madaniyat vazirligi,<br>Jismoniy tarbiya va sport vazirligi,<br>O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,<br>Xotin-qizlar qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi,<br>Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,<br>O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,<br>"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi loyiha ofisi" NNT |
| 58. | **"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"**ni samarali amalga oshirish maqsadida, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari murabbiylari, professor-o'qituvchilari, mahalla mas'ullari, vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish korxonalaridagi yoshlar yetakchilari malakasini oshirishni tashkil qilish. | 1. Malaka oshirish kurslarining yillik o'quv rejasi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish.<br>2. Malaka oshirish kurslariga malakali trenyerlarni jalb etish.<br>3. Malaka oshirish kurslarini o'tkazish. | 2020-yil 3 — 28-fevral<br><br>3 — 28-fevral<br><br>belgilangan grafik jadval asosida | — | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,<br>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,<br>O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,<br>Ma'naviyat va ma'rifat hududiy kengashlari, tegishli vazirliklar va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 59. | O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun ma’naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida har yili ikki marta sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilib borish. | 1. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish bo‘yicha Idoralararo ishchi guruhni tashkil etish. | 2020-yil 3 — 17 fevral | — | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi |
| | | 2. Ma’naviy tarbiya indikatorlari asosida so‘rovnoma namunalarini ishlab chiqish. | 18-fevral — 17-aprel | | |
| | | 3. So‘rovlarni o‘tkazish sotsiologik so‘rov natijalarini umumlashtirish, tahlil qilish va aniqlangan holat bo‘yicha ma’lumot tayyorlash. | alohida jadval asosida | | |
| | | 4. Tahliliy ma’lumotlarni pedagogik kengashlar muhokamasiga kiritib borish. | | | |
| 60. | Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish, har yili ikki marta o‘lchash va **“Ma’naviy tarbiya”** respublika jamoatchilik kengashida muhokama qilib borish. | 1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini o‘lchash va baholashning ilmiy metodik texnologiyasini yaratish. | 2020-yil 15-aprel — 17-iyul | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| | | 2. Belgilangan mezonlar asosida uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini doimiy baholash tartibini joriy etish. | 2020-2021 o‘quv yilidan muntazam | | |
| | | 3. “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashiga tahliliy ma’lumotlar kiritish. | muntazam | | |
| 61. | Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va | 1. Hamkor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ijodiy guruh shakllantirish. | 2020-yil fevral | — | Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | eshittirishlar o‘tkazish, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish. | 2. MTRK bilan hamkorlikda turkum tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlarni tayyorlash bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish. | mart | | O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar |
| | | 3. Tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlarni muntazam efirga berib borish. | reja asosida | | |
| | | 4. Ushbu ko‘rsatuvlarda ko‘tarilgan dolzarb mavzularni ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalar o‘tkazish. | doimiy | | |

*(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-iyundagi 391-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)*

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)*